

**Talaba-yoshlarining cholgʻu  
musiq*a* ijrochiligini  
rivojlantirish maqsadida  
universitetda musiq*a*  
toʻgaragi faoliyat  
koʻrsatmoqda**

*Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbusning Birinchi tashabbusi boʻlgan yoshlarning musiq*a*, rassomlik, adabiyot, teatr va sanʼatning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, isteʼdodini yuzaga chiqarish maqsadida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida “Estrada hamda milliy cholgʻu asboblari” boʻyicha toʻgarak tashkil etildi.*





Universitetda talaba-yoshlarning qobiliyati rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllanishi, ularni hayotga har tomonlama tayyorlash, mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'rin egallay oladigan yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan iste'dodli yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish va talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashda ushbu to'garakning o'rni beqiyos!

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi bitiruvchisi, O'zbekiston Davlat Filarmoniyasida ko'p yillar faoliyat yuritgan, tajribali mutahassis Saparbaev Mansur boshchiligida to'garakda 20 dan ziyod yoshlar o'z iste'dodlarini namoyon qilmoqda.



“Musiq­a asboblari­ni ch­alishni o­rganish, birinchi navbatda, hissiy intellekt, qo­l, barmoq va oyoqlarda ishlash mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa, o­z navbatida, insonning kognitiv qobiliyatlarni yaxshilaydi”, deydi to­garak rahbari Saparbaev Mansur

Mazkur to­garakda san­atsevar yoshlar rubob, gitara, fort­opiano kabi cholg­u­asboblarni ch­alish hamda vokal darslarida o­z ovoz tembr­larini soz­lab, qo­shiq kuylashni qunt bilan o­rganib kelmoqdalar. Shu jumladan, iqtidorli faol talabalar tomonidan Jahon musiq­a durdonalari yuksak estetik mahorat bilan ijro etilmoqda.



2022-2023 o'quv yili mobaynida "Yoshlar bilan ishlash" bo

'limi tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejaga muvofiq o'tkazib kelinayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda to'g'arak qatnashchilari faol ishtirok etib kelishmoqda.